

***ISSN:3060-4567 Modern education and development***  
**"IKKI ESHIK ORASI ASARIDA "URUSH DAVRIDAGI O'ZBEK  
AYOLLARINING MATONATI QORA AMMA VA ROBIYA  
TIMSOLIDA"**

***Sharifova Sevinch***

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

***Usarova Laylo Ibragimovna***

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti  
kafedrasi dotsenti*

***Annotatsiya.*** Ushbu maqola taniqli yozuvchi O'tkir Hoshimov va uning "Ikki eshik orasi" romanidagi obrazlar timsoli haqida. Ushbu asarda urush davri qiyinchiliklari ochib berilgan. Front ortidagi ayollar matonati haqida gap ketadi.

***Kalit so'zlar:*** qonli urush, "Qora amma ", Robiya, roman, Kimsan, matonat, judolik

O'z asarlarida ona, urush kabi obrazlarni yaqqol gavdalantirib bera olgan mahoratli va serqirra yozuvchi O'tkir Hoshimov 1941-yil Toshkentning Do'birobod dahasida tavallud topdi. O'tkir Hoshimov o'zbek adabiyotida o'zining "Nur borki soya bor", "Dunyoning ishlari ", "Muhabbat ", "O'zbek ishi", va "Ikki eshik orasi "kabi asarlari bilan o'chmas iz qoldirgan desak adashmaymiz. Serqirra ijodkorning hayotiy romanlari izlanuvchi tilshunoslarni turli-tuman misollar girdobiga g'arq qiladi va yozuvchining quyidagi so'zlari fikrimiz isboti bo'la oladi."Shunday asar yozsangki, kitobxon o'qiganida hamma narsani unutsa asar qahramonlari hayoti bilan yashasa, quvonsa, iztirob cheksa... Kitobni o'qib bo'lgan kuni kechasi bilan uqlamay, tulg'onib chiqsa... kelib, o'sha kitobni yana qo'liga olganida qaytadan hayajonga tushsa... Undan yangi ma'nolar tuysa... Orzum-shu..."[1]. Adib "Ikki eshik orasi "romanida Ikkinci jahon urushidagi holatlarni ya'ni xalqning ayanchli va sermashaqqat turmush tarzini, o'g'lidan va eridan bir

vaqtida ajralgan ayollarning achinarli taqdirini va shu kabi obrazlarni yaqqol tasvirlab bergen .

Bu roman personajlarga boyligi,urush voqealarining yaqqol tasvirlanishi va eng asosiysi asarning 7 ta qahramon tilidan so‘zlab berilishi bilan kitobxonni o‘ziga jalgan etadi. O‘tkir Hoshimov bu asar orqali urush davridagi haqiqiy o‘zbek ayollarining matonatini bir nechta obrazlar bilan yaqqol tasvirlab bergen. "Qora amma" sodda, mehribon, mehnatkash va jafokash bir ona siyosida gavdalantiriladi. Bu obrazda biz o‘zining yakkayu yagona o‘g‘li bo‘lgan Kimsanni ajalning uyasi bo‘lgan urushga kuzatishi, o‘lganiga, unga qo‘yilgan turli xil tuhmatlarga ishonmay, o‘g‘lini qaytishini ko‘zlari to‘rt bo‘lib kutgan bir mushtipar ona timsolini ko‘rishimiz mumkin. U boshiga tushgan shuncha qiyinchiliklar,tashvishlarga qaramay barchasini sabr-bardosh bilan yengib o‘zida yashashga kuch topadi. "Qora amma" obrazi yosh Muzaffar tilidan shunday ta‘riflanadi "Qora ammam xuddi koptokka o‘xshaydi. Kichkina dum- dumaloq. Yozda ham qora xalat kiyib yuradi. [2.Ikki eshik orasi 24-bet]. "Ammam boshini bir yongan tashlagancha elakni tapillatadi. G‘ij-g‘ij nafas oladi,xuddi ichiga mitti odamchalar kirib olgan-u hadeb hushtak chalayotgandek"[3.ikki eshik orasi 25-bet]. "Qora amma obrazi bilan bir qatorda "Robiya" obrazi ham haqiqiy o‘zbek ayoli timsolini gavdalantira oladi. Robiya yoshlik davridanoq urushning azobini chekkan,onasidan erta yetim qolgan bu ham yetmagadek tuhmat sababli otasidan ham ayrılgan bu qizning qiyinchiliklarga bergen sabr-matonatini ko‘rib qoyil qolsak arziydi U "Qora amma" ning qo‘lida tarbiya topib ,Kimsan bilan bir-biriga ko‘ngil qo‘yadi, unashtiriladi. Kimsan urushga ketgandan so‘ng qaytmasang ham uni ancha yillar mobaynida kutadi. Lekin u kichkina Muzaffarga ichi achiganjdan ham uni yaxshi ko‘rib ko‘ngil qo‘yganidan, Kimsanning tog‘asi Shomurod akaga turmushga chiqishga rozi bo‘ladi. Yana shuni ham ta‘kidlab o‘tish kerakki, bu obraz orqali biz urush jarayonida kechani kecha ,kunduzni kunduz demay erkaklardek jon kuydirib ishlagan, hattoki traktor haydagan Robiya obrazini ham ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda bu asar qonli urushning xalqimizga olib kelgan qiyinchiliklari va bu qiyinchiliklarga qaramay mardonavor kurashgan

oqko‘ngil,mehribon xalqimizning turmush tarzini tasvirlab bergen. Shu bilan bir qatorda ochlik,yupunlik,ayriliq, alamli sevgi muhabbat, g‘azab va judoliklar - hamma hammasi romanda nihoyatda ishonarli tasvirlangan

**Foydanilgan adabiyotlar:**

1. Hoshimov.O‘ .(2013) Ikki eshik orasi. Roman.
2. Hoshimov.O‘. Ikki eshik orasi.-Toshkent: Sharq ,2012 24-25 betlar
3. Oyna.uz veb sayti